


01/1-02-05-45  
28.04.2022-y.



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022- yilning 28- aprelida  
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan Kengash yig'ilishi**

**BAYONI № 7**

2022- yil 28- aprel

Samarqand shahri

**Raislik qiluvchi:** D. Musinov Boshqarma boshlig'i  
**Qatnashdilar:** Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari,  
Komissiya a'zolari, boshqarma hamda  
shahar, tuman statistika bo'limlari  
boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

**Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar yuzasidan 2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish to'g'risida.**

*(D.Musinov, Sh.Abdiyev, A.Suyunov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, J.Ulashev, D.Musinov)*

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i D. Musinov so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz" va "Korrupsiyaga duch kelsangiz xabar bering" mavzusida shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolayotganligi, bu illatga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olayotganligi, O'zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Hozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanmaslik kerakligini ta'kidlab, tizimda bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik borasida axboroti eshitildi.

Jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega

bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy bevosita yoki bilvosita manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat ekanligi, bu tarmoq fuqarolarga korrupsiyaning aniq holatlari to'g'risida elektron pochta yoki telefon orqali ma'lumot yuborish hamda Davlat statistika qo'mitasi Antikorrupsiya ([https://t.me/stat\\_antikorrupsiya](https://t.me/stat_antikorrupsiya)) Davlat statistika qo'mitasi antikorrupsiya kanaliga murojaat qilish uchun korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun maxsus bot (@antikorrupsiyastatbot) ishga tushirilganligini ma'lumot o'rnida ta'kidlab, shuningdek, tizim xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarmaslik (vijdonan bajarmaslik), mansab vakolatlarining suiiste'mol qilinishi, fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, mansabdor shaxslar tomonidan tovlamachilik qilish holatlari, asossiz taqiq va cheklovlar haqida ham xabar berilishi mumkinligini ma'lum qildi.

Ushbu tezkor kanalga tushgan ma'lumotlar sir saqlanishi murojaatda ko'tarilgan muammolarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan Davlat organiga yoki mansabdor shaxsga murojaatning yo'naltirilishi murojaatda ko'rsatilgan ma'lumotlar oshkor etilmasligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, yig'ilishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi tizimida so'zsiz bajarilishi yuzasidan ham mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Davlat statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni ovoro qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, asossiz to'lovlar undirish, o'zaro munosabatlarda sansalorlik, ta'magirlik, poraxo'rlik va boshqa ko'rinishdagi korrupsiya holatlariga barham berish bo'yicha tizim xodimlarini qa'tiy ogohlantirib o'tdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

### **QAROR QILADI:**

1. Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasini tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig'i D. Musinovning **“Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz”** va **“Korrupsiyaga duch kelsangiz xabar bering”** mavzusi yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**3. Axborot xizmati va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):**

**“Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz”** va **“Korrupsiyaga duch kelsangiz xabar bering”** mavzusida **video rolik** tayyorlash hamda boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Agarda, mas'ul xodimlar tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikga muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilsin.

5. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Komissiya kotibi**



**X.Xolmo'minov**